O‘ZBEK TILIDA NUTQIY BUZILISHLAR VA ULARNI LOGOPEDIK MASHQLAR ORQALI BARTARAF ETISH

Xudayberdiyeva Laziza Sanjarovna
Andijon davlat tibbiyot instituti, dotsent

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o‘zbek tilida kuzatiladigan nutqiy buzilishlarning lingvistik, psixolingvistik va logopedik xususiyatlari hamda ularni maxsus logopedik mashqlar orqali korreksiyalash imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Nutqiy buzilishlarning asosiy turlari, jumladan, dislaliya, dizartriya, alaliya, afaziya, rinolaliya va duduqlanishning yuzaga kelish omillari, nutq faoliyatiga ta’siri hamda ularning fonetik-fonologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilining artikulyatsion va fonologik tizimiga moslashtirilgan logopedik mashqlar, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, fonematik idrokni rivojlantirish, nutqiy nafasni boshqarish va bog‘lanishli nutqni shakllantirishga qaratilgan korreksion usullar ko‘rib chiqiladi. Nutqiy buzilishlarni bartaraf etishda individual yondashuv, bosqichma-bosqich mashq qildirish hamda lingvistik va logopedik metodlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishning ahamiyati asoslanadi. Tadqiqotda o‘zbek tilining milliy-fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda logopedik mashqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy buzilishlar, logopediya, psixolingvistika, dislaliya, dizartriya, alaliya, afaziya, rinolaliya, duduqlanish, artikulyatsiya, fonematik idrok, logopedik mashqlar, nutq korreksiyasi.*

Аннотация.

В данной статье рассматриваются лингвистические, психолингвистические и логопедические особенности речевых нарушений в узбекском языке, а также возможности их коррекции посредством специально разработанных логопедических упражнений. Анализируются основные виды речевых нарушений, включая дислалию, дизартрию, алалию, афазию, ринолалию и заикание, факторы их возникновения, влияние на речевую деятельность и фонетико-фонологические особенности. Особое внимание уделяется логопедическим упражнениям, адаптированным к артикуляционной и фонологической системе узбекского языка, методам формирования правильного звукопроизношения, развития фонематического восприятия, речевого дыхания и связной речи. Обосновывается значимость индивидуального подхода, поэтапного проведения коррекционных занятий и комплексного использования лингвистических и логопедических методов.

Рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования системы логопедических упражнений с учётом национально-языковой и фонетической специфики узбекского языка.

***Ключевые слова**: речевые нарушения, логопедия, психолингвистика, дислалия, дизартрия, алалия, афазия, ринолалия, заикание, артикуляция, фонематическое восприятие, логопедические упражнения, коррекция речи.*

Abstract.

This article examines the linguistic, psycholinguistic and speech therapy characteristics of speech disorders in the Uzbek language, with particular emphasis on their correction through specially designed speech therapy exercises. The study discusses major types of speech disorders, including dyslalia, dysarthria, alalia, aphasia, rhinolalia and stuttering, focusing on their underlying factors, their impact on speech production and their phonetic and phonological characteristics. Particular attention is paid to speech therapy exercises adapted to the articulatory and phonological system of the Uzbek language, including techniques for improving speech sound production, developing phonemic awareness, regulating speech breathing and enhancing connected speech. The article also highlights the importance of individualised intervention, gradual implementation of corrective exercises and the integration of linguistic and speech therapy approaches. Furthermore, it considers the theoretical and practical aspects of developing an effective system of speech therapy exercises that takes into account the distinctive phonetic and linguistic features of Uzbek. The discussion emphasises the importance of language-specific approaches in speech correction and rehabilitation.

***Keywords:** speech disorders, speech therapy, psycholinguistics, dyslalia, dysarthria, alalia, aphasia, rhinolalia, stuttering, articulation, phonemic awareness, speech therapy exercises, speech correction.*

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Bu jarayon birinchi galda milliy tillarda o‘z zuhrini berdi. O‘tgan asrning oxiriga kelib zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ustuvor bo‘lgan struktur metodlar til va nutqning yangi qirralarini ochib berishda ojizlik qila boshladi. Tilni faqat tizim sifatida tadqiq etish uning eng muhim aloqa vositasi sifatida amalda qo‘llash, til sohibi bilan birga o‘rganish masalalarida yangicha qarashlarga muhtojlik sezildi.[1]

Shunday masalalardan birini nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish bilan bog‘liq muammo tashkil etadi.

Nutqiy nuqsoni bor insonlar bilan ishlash, kasallikning sabablarini aniqlash va davolash ishlari har vaqt jamiyat e’tiborida turgan. Boisi insonlar o‘rtasidagi doimiy

muloqotning yo‘lga qo‘yilishi jamiyat rivojlanishining birinchi sharti bo‘lgan. Har qanday nutqiy nuqson bu harakatga to‘siq vazifasini o‘tagan. Soqov, duduq, chala gapiradigan, tez gapiradigan, nutqi dim insonlar bilan muloqot qiyin kechgan.

Masalan:

– Ancha g‘alati-da shu Makki. O‘tgan gal shu erdaligingizda ham eshigimga kelib olgandi, opa. Bugun yana kelibdi. Bir narsalar deydi. Tushunib bo‘lsa o‘lsin. Zo‘rg‘a haydavordim. Gulshanning ichiga titroq kirdi. Lablari pir-pir uchdi. O‘zini qo‘yarga joy topmay o‘ng‘aysiz bo‘ldi .[2]

“Manglaydagi yoziq” asari qahramoni Makki – soqov. U bilan muloqot qilish boshqalarga qiyinchilik tug‘dirgan. Shu sababdan jamiyat o‘z a’zolaridan nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qilgan. Buning pirovard natijasida jismoniy va nutqiy kamchiliklar sabaini aniqlash, ularni davolash mexanizmdari bilan shug‘ullanuvchi maxsus fan – defektologiya shakllangan va taraqqiy etgan.

Defektologiya lotincha *defektus – kamchilik,* yetishmovchilik va *logos – so‘z, ta’limot* so‘zlaridan olingan bo‘lib, aqliy va fiziologik kamchiligi mavjud bo‘lgan insonlarrning, jumladan, bolalarning psixofizik rivojlanishi, ularni o‘qtish va tarbiyalash bilan shug‘ullanadigan fandir .[3]

Defektologiyada asosan aqliy rivojlanishida nuqsoni bor, hissiy-ixtiyoriy buzilishlari bo‘lgan, tayanch-harakat tizimi buzilgan va nogironligi kuchli bolalarning psixofizik rivojlanishi, ta’limi va tarbiyasini o‘rganish asosiy planda turadi.

Hamma inson ham onadan bir xil tug‘ilavermaydi. Hayotda taqdiri azal degan tushuncha bor. Unga ko‘ra, dunyoda qancha odam bolasi bo‘lsa, ularning har biri individual hayot tarzini kechiradi va shaxs sifatida takrorlanmas sub’ekt hisoblanadi. Ularning nutqi ham o‘ziga xos bo‘ladi. Har bir shaxs nutqi uning aqli, tafakkur qobiliyati, tarbiyasi, odob-axloqi, ma’lumoti, kasb-koriga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Hatto ona bilan bola nutqi ham bir-biridan keskin farqlanadi. Inson bolasi tabiat va jamiyatning bir bo‘lagi sifatida muntazam ravishda undagi beadad sub’ektlar va ob’ektlar bilan to‘qnashuvlarda yashaydi. Bu to‘qnashuvlar ba’zan tabiiy, silliq, ba’zida esa shaxs uchun halokatli bo‘lishi mumkin. Tasodifiy yoki tabiiy ravishda inson jismoniy yoki ruhiy zarba olib, muayayyan aqliy yoxud jismoniy harakatidan bir muddat yoki butunlay mahrum bo‘lib qolishi tez-tez uchrab turadigan hodisa. Bu halat, ayniqsa, bolalarda ko‘p kuzatiladi. Shunga ko‘ra, defektologiya bir qancha yo‘nalishlarga bo‘linib ketadi.

– Nutq terapiyasi, yoki logopediya – turli nutq buzilishlari va nuqsonlarini o‘rganish va ularni tuzatish usullari bilan shug‘ullanadi.

– Karlar pedagogikasi (surdopedagogika) – eshitish qobiliyati zaif odamlarni o‘qitish va tarbiyalash bilan shug‘ullanadi.

– Tiflopedagogika – ko‘rish qobiliyati zaif odamlarni o‘qitish va tarbiyalash bilan shug‘ullanadi.

– Ambliologiya – ko‘r va ko‘rish qobiliyati zaif bemorlarni hayotga moslashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish bilan shug‘ullanadi.

– Oligofrenopedagogika – aqliy zaif odamlarni o‘qitish va tarbiyalash hamda ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi bilan shug‘ullanadi.

Bular ichida klinik lingvistikaga yaqin keladigan yo‘nalish logopediya sanaladi. Logopediya yunoncha *logos – so‘z* va *paidoe – tarbiyalayman, rivojlantiraman* degan so‘zlardan olngan bo‘lib, bu nutq buzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish, ixtisoslashtirilgan treninglar va ta’lim orqali davolash usullari haqidagi fandir.

Logopediya alohida fan sifatida nutq buzilishlari va ularning davolash usullarini kompleks o‘rganadi.[4] Shu ma’noda u fiziologiya, nevrologiya, psixologiya, lingvistika va boshqa fanlar bilan doimiy aloqada ish ko‘radi.

Masalan: virtual muloqot orqali ona shifokorga shunday savol bilan murojaat qilgan:

– Assalomu alaykum! O‘g‘lim ikki yosh-u o‘n oylik. Tili biyron chiqqan edi. Ovoz toni ham baland. Baland ovozlarni yoqtirmasdi. Hozir duduqlanib gapirayapti. Katta mashinasining ovozini buvasi baland qilib qo‘yaveradilar. Unga bu yoqmasdi, “o‘chir” deyaverardi. Balki shundandir.

Shifokorning javobi:

– Sababini o‘zingiz yozib turganingizday oilada tinchlik-totuvlik, xotirjamlik muhitini shakllantirishga urinish lozim. Nevropatolog, logoped kabi mutaxassislar maslahatini olishingiz xam maqsadga muvofiq .[5]

Ko‘rinib turibdiki, logopediya bilan klinik lingvistikaning vazifalari mushtarak. Klinik lingvistikada tibbiyot bilan birgalikda quyidagi vazifalarni hal etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Nutq buzilishlarining turli shakllarda namoyon bo‘lishining asl sabablarini aniqlash.

2. Nutq buzilishlariga uchragan bemorlarda tabiiy yoki ottirilgan kasallikning rivojlanish dinamikasini o‘rganish

3. Nutqiy buzilishlarning tarqalishi, alomatlari va namoyon bo‘lish darajasini belgilash.

4. Nutqiy nuqsonli bolalarda nutqning shakllanishi va nutq buzilishlarining xususiyatlarini o‘rganish.

6. Nutq buzilishlarining etiologiyasi, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlashtirish.

7. Nutq buzilishlarini pedagogik diagnostika qilish usullarini ishlab chiqish.

7. Nutq buzilishlarining shaxsning aqliy rivojlanishiga, xulq-atvorini shakllantirishga ta’sirini ochib berish.

8. Nutq buzilishlarini tizimlashtirish.

9. Nutq buzilishlarini bartaraf etish tamoyillari, differentsial usullari va vositalarini ishlab chiqish.

10. Nutq buzilishlarining oldini olish usullarini takomillashtirish.

11. Nutq terapiyasi yordamini tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Ma’lumki, logopediyaning asosiy maqsadi insonlardagi og‘zaki, yozma nutqiy kamchiliklarni aniqlash, muloqot jarayonida, o‘yinlarda, o‘qishda, jamoat ishlarida va hokazolardagi uchraydigan talaffuz nuqsonlarini bartaraf etish, to‘g‘rilash, yo‘qotishdan iborat.

Logopedik ta’sirning asosiy vositasi – talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishning maxsus usullarini qo‘llash, ya’ni to‘g‘ri tuzilgan nutq mashqlari kompleksi va artikulyatsion gimnastikadan foydalanishdan iborat. Shu o‘rinda tibbiyot bilan lingvistika kesishadi va klinik lingvistikaga oid masalalar o‘rtaga ko‘ndalang bo‘lib tushadi. Lingvistikada til sistemasining asosini tovushlar tashkil qilishi aytiladi. Tovushlarning esa uchta tomoni bor: aytilishi (fiziologik), eshitilishi (artikulyatsion) va ijtimoiy qiymati (ma’no farqlash) .[6] Klinik lingvistika uchun har uchala jihat muhim. Talaffuzdagi nuqson so‘zningg noto‘g‘rri eshitilishiga, o‘z navbatida bu ma’noga putur yetishiga sababchi bo‘ladi.

Klinik lingvistika va tibbiyot tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishni 4 davrga ajratadi: 1) tayyorlov davari; 2) tovushlar talaffuzini yo‘lga qo‘yish (tovushlar postanovkasi) davri; 3) tovushlarning avtomatizatsiyasi, ya’ni ularni oson, ya’ni o‘z-o‘zidan talaffuz etiladigan bo‘lishiga erishish davri; 4) o‘xshash tovushlarni farqlash, differensiyalash davri.

Tayyorlov davri har doim o‘tkazilishi shart emas. Ba’zi hollarda birgina oddiy mashq bilan tovushning o‘z-o‘zidan talaffuz etiladigan bo‘lishiga erishish mumkin, biroq ko‘p hollarda tovushni qo‘yish uchun bir qator tayyorgarlik ishlarini o‘tkazish zarur.

Masalan til tagidagi yuganchaning kalta bo‘lishi tufayli bola “*r*” tovushini to‘g‘ri talaffuz etmasa, til uchini tepaga ko‘tara olmasa, yuganchani bir qator artikulyatsion mashqlar yordamida o‘z holiga keltirish, cho‘zish mumkin. Tayyorlov bosqichida artikulyatsion apparatning harakatchanligini yaxshilash, nafasni mashq qilish, taqlidchanlikni rivojlantirish va keyingi bosqichlarda zarur bo‘ladigan boshqa ko‘nikmalarni tarbiyalash zarur.

Til tagidagi yugancha (frenulum) kalta bo‘lganda, bolaning tilini yuqoriga ko‘tarish va "R" tovushini to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun

tayyorlov bosqichida qo‘llaniladigan aniq artikulyatsion va nafas mashqlari misollari:

1.Yuganchani cho‘zish va til harakatchanligini oshirish mashqlari

"Qo‘ziqorin" (Gribok) mashqi:

Bajarilishi: Bola tilini butun yuzasi bilan yuqoridagi tanglayga yopishtirib (so‘rib) oladi va og‘zini keng ochadi. Bunda til tagidagi yugancha xuddi qo‘ziqorinning oyog‘idek cho‘zilib ko‘rinishi kerak.

Vaqti: Shu holatda tilni 5–10 soniya ushlab turiladi. 5-6 marta qaytariladi.

"Malyar" (Rassom) mashqi:

Bajarilishi: Og‘iz keng ochiladi. Tilning uchi bilan yuqoridagi tishlarning orqasidan boshlab, tanglay bo‘ylab ichkariga (tomoq tomonga) va orqaga qarab "bo‘yash" harakatlari qilinadi. Til tanglaydan uzilmasligi shart.

"Garmoshka" (Garmoq) mashqi:

Bajarilishi: "Qo‘ziqorin" mashqi kabi til tanglayga yopishtiriladi. Tilni tanglaydan uzmagan holda, og‘izni keng ochib-yopish harakatlari bajariladi. Bu yuganchani elastik qilishga yordam beradi.

2. "R" tovushi uchun to‘g‘ri havo oqimini shakllantirish (Nafas mashqlari)

"R" tovushi tildan kuchli havo oqimi o‘tib, uning uchini titratishini (vibratsiya) talab qiladi.

"Futzal" yoki "Paxtani puflash":

Bajarilishi: Stol ustiga kichik paxta bo‘lagi yoki qog‘oz qo‘yiladi. Bola tilini biroz oldinga (kurak shaklida) chiqarib, til uchi orqali to‘g‘ri yo‘naltirilgan havo bilan paxtani "darvozaga" puflab kiritishi kerak. Lunjlar shishib ketmasligi nazorat qilinadi.

3. Taqlidchanlik va nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (Fonematik eshitish)

"Ot choptirish" mashqi:

Bajarilishi: Bola otning tuyoq tovushlariga taqlid qilib, tilini tanglayga urib "taq-tuq" qiladi. Avval sekin, keyin tezlashtiriladi. Bu mashq til mushaklarini baquvvat qiladi.

"Pulemyot" yoki "Baraban" mashqi:

Bajarilishi: Og‘iz ochilgan holda, til uchi bilan yuqoridagi tishlarning orqasiga (alveolalarga) urib, tez va aniq qilib "d-d-d-d-d" yoki "t-t-t-t-t" tovushlari aytiladi. Bu "R" tovushining vibratsiyasini tayyorlash uchun eng asosiy mashqdir.

Agar kishi talaffuzida kamchiliklar bo‘lsa, eng avval noto‘g‘ri talaffuz etiladigan tovushni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish, ya’ni tovush talaffuzini yo‘lga qo‘yish, uning postanovkasi ustida ish olib boriladi.

O‘rganilgan yangi tovushni bo‘g‘in, so‘z, gaplarda, she’rlarda va umuman nutq faoliyatida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish – tovushning avtomatizatsiyasidir.

Yangi o‘rganilgan tovushni boshqa o‘xshash tovushlardan ajrata bilishga o‘rgatish – differensiatsiya to‘rtinchi bosqich sifatida o‘tkaziladi.

Tovushlarni turli xil usullar yordamida to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish mumkin.

1. Taqlid usuli. Bunda logoped oynaga qarab kerakli bo‘lgan tovush artikulyatsiyasini aniq qilib ko‘rsatadi, tovushni talaffuz etadi. Logopat esa uning harakatlariga taqlid qilish yo‘li bilan tovush talaffuzini o‘rganib boradi.

2. O‘xshash tovushni talaffuz ettirib turib, mexanik usuldan ham foydalanish.

Logopat bola to‘g‘ri talaffuz qila oladigan o‘xshash tovushni nutq apparati organlarining holatini tegishli asbob (shpatel, logopedik zondlar) yordamida o‘zgartiradi. Agar bolaga masalan, “*t*” tovushini to‘g‘ri talaffuz etishini o‘rgatmoqchi bo‘lsak biz unga *ta – ta – ta* kabi bo‘g‘inlarni takrorlash vazifasini beramiz. Bunda til uchi pastki tishlarga tegib turishi kerak. Bola shu bo‘g‘inlarni talaffuz etayotgan vaqtda logoped shpatel yoki zond yordamida til uchini asta bosib, tilni og‘iz ichkarirog‘iga itaradi. Bunda asta sekin *ta – tya – kya – ka – ka* kabi tovushlar chiqadi. Shuningdek “*d*” tovushining talaffuzidan foydalanib “*g*” tovushini, “s” tovushidan foydalanib “*x*” tovushi talaffuzini yo‘lga qo‘yish mumkin.

3. Aralash usul. Bu usul taqlid mexanik usulni va tushuntirish ishlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, “s” tovush talaffuzi o‘rgatilayotganda logoped til, tish, lablar qanday holatda bo‘lishi kerakligini bolaga tushuntiradi. Bola bunga tushunsa ham, lekin ixtiyoriy harakat malakasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tilni kerakli holatga keltira olmaydi, “tili kelishmaydi”. Bunda biz shpatel bilan yordam beramiz.

Tovushlar avtomatizatsiyasini o‘tkazishda dastlabki bosqichlarda sodda yopiq bo‘g‘inlar, so‘ng ochiq, keyin esa murakkabroq bo‘g‘in bo‘lishi mumkin. Lekin bolaning yoshiga, talaffuzidagi kamchiligining xarakteriga qarab, mashq muddati har xil bo‘lishi mumkin.

Logopedik mashg‘ulotlar bir haftada kamida uch marta o‘tkazilishi kerak. Logopedik mashg‘ulotlar uchun material tanlashda oddiydan murakkabga o‘tish tamoyiliga asoslanish zarur. Bunda logoped fonetik talablarni doimo hisobga olib borishi kerak. Eng oldin talaffuz fonetik jihatdan oson tovush o‘rganiladi. Differensiatsiya bosqichida eng avval artikulyatsiya jihatidan bir-biridan uzoq tovushlar, so‘ngra yaqin, o‘xshash tovushlar ustida ish olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.https://spravochnick.ru/russkiy_yazyk/novye_napravleniya_v_sovremennoy_lingvistike.

2.Зоҳидова М. Манглайдаги ёзиқ//Шарқ юлдузи. – 2022. – 8-сон. – 96-б.

3.Шаповал И.А.Основы дефектологии. – Москва-Вологда: Инфра-Инженерия, 2024. С.5 (140)

4.Логопедия. Учебник для вузов. – Москва: Владос, 1998. с. 2 (365)

5.Турсунов У., Раҳматуллаев ш., Мухторов Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 15-б.

6.. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b. ISBN: 978-9943-319-41-7.

7. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

8. Mo‘minova L.R. Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

9. Mo‘minova L.R., Shomaxmudova R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2007.

10. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2005.

11. Левина Р.Е. (ред.). Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1968. – 367 с.

12. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – Москва: Издательство Московского университета, 1973. – 374 с.

13. Фомичева М.Ф. Воспитание у детей правильного произношения. – Москва, 1999.

14. Филичева Т.Б., Туманова Т.В. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. – Москва: ГНОМ и Д, 2000.

15. Bowen C. Children's Speech Sound Disorders. 2nd ed. – Wiley-Blackwell, 2015. DOI: 10.1002/9781119180418.

16. American Speech-Language-Hearing Association (ASHA). Speech Sound Disorders: Articulation and Phonology. – ASHA Practice Portal.